

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI
Amaliy matematika kafedrası
«Amaliy matematika va informatika»
ta'lim yo`nalishi IV kurs talabasi
Abduqodirova Ilmiraning**

**BITIRUV
MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Matritsaning xos sonlarining
qismaniy masalasini proeksion – differensial usuli bilan
yechish**

Ilmiy rahbar:	prof. A. O. Otarov
Kafedra mudiri:	dots. M.Q.Berdimuratov

Nukus – 2019

Mundarija

Kirish.....	3
1-§. Proeksion – differensial usulning asosiy rejalari.....	7
1.1 Umumiy mulohazalar	7
1.2 Usulning soddalashtirilgan algoritimi	10
1.3 Proeksion – differensial usulning yangi varianti	11
1.4 Chiziqli algebraik tenglamalarning sistemasi (CHATS) uchun preksion- differensial usulning yaqinlashuvchiligini tekshirish.....	14
2-§. Proeksion – differensial usulining ixtiyoriy matritsaning xos qiymatlarini va xos vektorlarini topishda qo`llanilishi	18
2.1 Xos qiymatlarning qismaniy masalasini yechishning yangi iteratsion usuli.....	20
2.2 CHATS larni differensial usul bilan yechish	23
3-§. Sonli misollar.....	26
Xulosa.....	31
Foydalanilgan adabiyotlar.....	33
Qo`shimchalar	35

KIRISH

Ko'plagan ilmiy-texnik masalalar ayniqsa fizik, mexanik, astranomik masalalarini matritsalarining xos qiymatlarini va xos vektorlarini topishni ya'ni

$$Ax = \lambda x \quad (0.1)$$

chiziqli algebraik tenglamalarni bir jinsli tenglamalar sistemasining noldan farqli yechimlari bor bo'lgan λ parametirining qiymatlarini topishga ham bu qiymatlar-ga mos (1) sistemaning noldan farqli yechimlarini aniqlash masalasini yechishga keltiriladi. Bunda $A = (a_{ij}; i, j = \overline{1, n})$ n -tartibli kvadrat matritsa, $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)'$ nomalum vektor.

Barcha o'zgaruvchan tebranish yo'nalishlarida matritsalarining xos qiymatlari va ularga mos xos vektorlarini topish usullari katta ro'l o'ynaydi. Sababi bunday yo'nalishlarda tebranishning ampitudasi bazi bir matritsalarining xos qiymatlari bilan va bu tebranishning formasi uning xos vektorlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun matritsalarini xos qiymatlarini topish ahamiyatli ilmiy – texnik izlanishlardan iborat [4,9,13,15,17].

Kvadrat A matritsaning xos qiymatlari

$$D(\lambda) = |A - \lambda E| = (-1)^n [\lambda^n - P_1 \lambda^{n-1} - \dots - P_{n-1} \lambda - P_n] = 0 \quad (0.2)$$

algebraik tenglamalarning ildizlari bo'ladi. Bunda E – n – tartibli birlik matritsa. Bu tenglama A matritsaning xarakteristik tenglamasi deb va $D(\lambda)$ - xos ko'p hadi deb ataladi. Shunday qilib A matritsasining xos qiymatlari va xos vektorlarini topish masalasini quyidagi uch bosqichga bo'lish mumkin:

- 1) matritsaning $D(\lambda)$ xos ko'p hadini yasash;
- 2) matritsaning $D(\lambda) = 0$ xarakteristik tenglamasini yechib, uning λ_i ($i = \overline{1, n}$) xos qiymatlarini aniqlash ;
- 3) chiziqli algebraik tenglamalarning bir jinsli

$$(A - \lambda_i E)x = 0, \quad i = 1, 2, \dots, n \quad (0.3)$$

sistemani yechish , yani berilgan matritsaning xos vektorini aniqlash.

Hozirgi vaqtgacha matritsaning xos qiymatlarini va xos vektorlarini topishning soddalashtirilgan ko'plagan maxsus usullar ishlab chiqilgan. Bu usullar to'g'ri (aniq) va iteratsion usullar deb ataladigan katta ikki guruhga bo'linadi [1-4,6,8,9].

To'g'ri usullarning ma'nosi quyidagidan iborat : chekli sondagi o'xshash turlantirishlarni bajarish yo'li bilan dastlab berilgan matritsaning xarakteristik ko'p hadini kayfitsentlari va xos vektorlari oson topiladigan, oddiy turdagi matritsaga keltiriladi. Bunda matritsaning xos qiymatlari xarakteristik tenglamani ildizlarini hisoblashda qandaydir bir usullar yordamida aniqlanadi.

To'g'ri usullarning ahamiyatli xususiyati shundaki ularning qo'llanish oralig'lari keng bo'lishida va qo'yilgan masalani yechishda tez yechishni taminlaydi. Ammo bunday usullardan ahamiyatli bo'lib foydalanish kerak. Sababi deyarli ularning barchasi oraliq hisoblashlarni natijalarini xatoliklari sezilarli bo'ladi [4,6,9].

Bir jinsli (3) sistemalarning yechimlari turg'unligi o'zgarmas A matritsasiga bevosita bog'liq boladi. Agar A matritsasi karrali xos qiymatlarga ega bo'lsa unda (3) sistema matritsasi aynigan bo'ladi. Aynigan matritsali sistemalar o'zgarmas qiymati yechimga ega bo'lishi mumkin emas. Bunda kayfitsentlarni kichik muqdorga o'zgartirish bilan bunday sistemani birliksiz sistemaga aylantiriladi. A matritsasining bir necha yaqin xos qiymatlariga ega bo'lgan hollarda (3) sistemasining yechimi o'zgaruvchan bo'ladi [4,5,6,13,14,15].

To'g'ri usullarning ko'rsatilgan kamchiligi A matritsasiga o'xshash turlantirishlarga asoslangan to'g'ri usullar yo'q. Ammo bunday usullarda xarakteristik tenglamaning kayfitsentlari katta qiymatlar bilan aniqlanadi [4,5,6,16].

Iteratsion usullarda matritsaning xos qiymatlarini, xarakteristik ko'p hadlarining kayfitsentlarini oldindan aniqlamasdan bazi bir usullar bilan yasalgan sonlar ketma – ketligini limiti hisobga olinadi. Bunda bir vaqtdan matritsaning xos vektorlari va ular bilan oddiy ifodalar orqali bog'liq bazi bir boshqa vektorlar aniqlanadi. Iteratsion usullarni to'g'ri usullar bilan solishtirganda yaxlitlash

xatoliklari kam bo`ladi, ammo ularning hisoblash algoritimi anacha murakkab bo`ladi. Bu usullarning tezlik bilan rivojlanishi va hisoblash amaliyotida keng qo`llanilishi, EHM larning paydo bo`lishi bilan bunday usullarni tezlik bilan hisoblash mumkin bo`ldi [3,6,9].

Iteratsion usullar ko`p hollarda xos qiymatlarni yagona (xususiy) masalasi deb ataladigan masalani yechishga, yani matritsaning bitta yoki bir necha xos qiymatlarni va ularga mos xos vektorlarini topish mumkin. To`g`ri usullar xos qiymatlarni to`liq masalasini yechishga yani matritsaning barcha xos qiymatlarni va ularga mos xos vektorlarini aniqlash imkonini beradi. Xos qiymatlarni to`liq masalasini bazi bir iteratsion usullari bilan yechish mumkin [4,6,9,15].

Iteratsion usullar orasida, simmetrik matritsaning xos qiymatlarni to`liq masalasini yechish uchun maxsus usul (Yakob usuli) ahamiyatli o`rin egallaydi [4,6,15]. Bu usul berilgan matritsaga o`xshash va ortaganal va bosh dioganaldan tashqarida yotadigan barcha elementlarining kvadratarining yig`indisi nolgacha manaton kamayuvchi matritsalar ketma-ketligini yasashga asoslangan.

Iteratsion usulning hisoblash algoritimi oddiy va yaqinlashuvchi bo`ladi va u EHM da yengil amalga oshiriladi. Xos qiymatlarining joylashishiga bog`liqsiz bu usul asimptotik kvadratik yaqinlashunchilikka ega. Karrali va bir biriga yaqin bo`lgan xos qiymatlariga ega bo`lishi usulning yaqinlashuvchiligini taminlaydi va yaqinlashuvning tezlanishiga olib keladi. Yaqin xos qiymatlar qancha ko`p bo`lsa yaqinlashish tezligi shuncha katta bo`ladi. Bu usulda hisoblash algoritimidagi hisoblashlar natijalarini yaxlitlash xatoliklarini ta`sirida bo`ladi [4,6,14]. Iteratsion usulning yuqorida ko`rsatilgan ahamiyatli xossalari uning to`liq masalasini yechish uchun bir necha yangi maxsus usullarni paydo bo`lishiga sabab bo`ldi [5,10].

Ixtiyoriy matritsaning xos qiymatlarini topishning ayrim usullari Shura teoremasiga asoslangan [10,13]. Bu teorema o`xshash turlantirishlar ketma-ketligi yordamida dastlabki matritsani uchburchak matritsaga keltirish mumkinligini asoslab beradi. Buni bajarishning ikki usuli [4,14] va [10] ishlaridan keltirilgan. Ularning birinchisida bosh dioganalining quyida joylashgan elementlar navbatma

navbat no'lga aylantiriladi va ikkinchisida diogonal ostidagi elementlarni kvadratlarining yig'indisini kichraytirilib boriladi.

Ancha oddiy va yaxshi hossalarga ega bo'lgan ixtiyoriy matritsaning diogonal matritsaga turlantirish usuli [10] ishida berilgan. Bu usuli haqiqiy simmetrik matritsalar uchun iteratsion usuli bilan to'liq mos keladi. Bu usulning yaqinlashuvchi bo'lishi va EHM larda oson amalga oshiriladi. Agar dastlabki berilgan matritsa n chiziqli bog'liqsiz xos vektorlariga ega bo'lsa unda xos qiymatlarining joylashishiga bog'liqsiz, asimpitotik kvadratik yaqinlashuvchi bo'ladi.

Matritsaning xos qiymatlarini to'liq masalasini yechish iteratsion usullar orasida katta guruh darajali usullardan iborat [4,10,15]. Ular oddiy hisoblash sxemalariga ega va EHM da oson amalga oshiriladi.

Bu usullarning asosiy ortiq xususiyati berilgan matritsaning xususiyatiga bog'liqsiz ular birdan – bir sxema bo'yicha matritsaning xos qiymatlarining to'liq masalasini yechish imkoniyatini beradi. Ammo ularning yaqinlashish tezligi yuqori emas va geometrik progressiyaning yaqinlashish tezligidan yuqori bo'lmaydi [4,15].

Bu bitiruv mutaxassislik ishida proeksion – differensial usulning soddalash-tirilgan yangi algoritimi ixtiyoriy matritsaning xos qiymatini yagona masalasiga qo'llanish mumkin bo'ladi. U kirish bo'limidan, uch paragrafdan, xolosa bo'limi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va qo'shimchalardan iborat bo'ladi. Kirish qismida qaralayotgan masal bo'yicha adabiyotlarga qisqacha malumotlar olindi. 1-paragrafda proeksion differensial usulining yangi algoritimlari chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishga bag'ishlangan. 2-paragrafda proeksion – differensial usulning 1- paragrafda keltirilgan hisoblash algoritimi ixtiyoriy matritsaning xos qiymatlarini va ularga mos xos vektorlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ishning 3-paragrafida proeksion – differensial usullning 2-paragrafda keltirilgan hisoblash sxemasini qo'llanib EHM lar yordamida yechiladigan sonli misollar natijalari keltirilgan xulosa bo'limida bitiruv malakaviy ishining asosiy natijalariga bag'ishlangan. Bitiruv malakaviy ishining qo'shimchalar qismida EHM uchun tuzilgan pragrammalar va ularning bajarishdan olingan sonli natijalar keltirilgan.

1-§ Proekson – differensial usulning asosiy rejalari.

Bu paragrafda proekson – differensial usulning [7,11] asosida yotadigan yani ma'lumotlar keltiriladi.

Qabul qilingan belgilashlar: E^n - n -o'lchamli Evklid fazosi; $(x, y) - x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$, $y = (y_1, y_2, y_3, \dots, y_n) \in E^n$ vektorlarining skalyar ko'paytmasi; a_{0i} - (0.1) sistemaning dastlabki i ta tenglamalarining yechimi a_i ga tegishli bo'ladigan va (0.2) Koshi masalalarining rekurrent ketma-ketligi uchun $x^{(0)} = \alpha_{00}$ boshlang'ich shartiga mos keladigan vektor.

1.1. Umumiy mulohazalar. Umumiy holda chiziqli bo'lmagan quyidagi tenglamalar sistemasini qaraymiz:

$$f(x) = 0, \quad (1.1)$$

bunda $x \in E^n$, $f(x) \in E^m$, $m \leq n$, $f_j(x)$ ($j = \overline{1, m}$) funksiyalari ikkinchi tartibgacha xususiy hosilalarga ega va (1) tenglamasi bazi bir $\omega \subset E^n$ sohasida birdan bir $x = \alpha$ yechimga ega bo'ladi deb faraz qilinadi.

Shunda (1) tenglamaning $x = \alpha$ yechimiga pastga tushish quyidagi Koshi masalasining rekurrentli ketma – ketligining $x_i(t_i)$ ($i = 1, 2, 3, \dots, n$) yechimlaridan tuzilgan egri chiziqlar bo'yicha amalga oshiriladi:

$$\frac{dx_i}{dt_i} = \frac{a_i^{i-1}}{(f'_i, a_i^{i-1})}, x_i^0 = x_i(t_i = t_i^{(0)}) = x_{i-1}(t_{i-1} = 0) = a_{0i}, \quad (1.2)$$

$$t_i^0 = f_i(a_{0i-1}), \quad x^{(0)} = a_{00}, \quad i = 1, 2, \dots, m,$$

bunda $\{a_i^{i-1}(x)\}_i^m$ vektor – funksiyalari $f(x_j)$ ($j = 1, 2, \dots, m$) funksiyalaridan quyidagi shartlar bajariladiganday etib yasaladi:

$$(f'_i, a_i^{i-1}) = 0, \quad j \leq i-1, \quad (1.3)$$

$$(f'_i, a_i^{i-1}) \neq 0, \quad j = i, \quad j = \text{grad} f_j(x), \quad (1.4)$$

Shunda $f_j(x)$ va $a_i^{i-1}(x)$ larga bazi bir shartlar qo'yilganda (2) tenglama $[t_i^0, 0]$ chekli oralig'ida aniqlangan va

$$\lim_{t_j \rightarrow 0} x_i(t_j) = a_{0i}$$

xossasiga ega bo'lgan, $x_i(t_j)$ yechimga ega bo'ladi [7,11]. Shu kabi (2) Koshi masalasi uchun dastlabki iteratsiyalar ma'lum:

$$f_j(x_i(t_j)) = 0, \quad j \leq i-1, \quad (1.5)$$

$$t_i - f_i(x_i(t_i)) = 0 \quad (1.6)$$

Agar (1) – chiziqli emas tenglamalar sistemasi bo'lsa, unda unga mos keladigan (2) differensial pastga tushish tenglamasida chiziqli emas tenglamalar boladi. Shuning uchun (2) Koshi masalasini yechish uchun differensial tenglamalarning integrallash formulalaridan foydalaniladi [1,2,8,11,12]. Boshqacha aytganda, (1) tenglamasining $x = \alpha$ yechimiga pastga tushish (2) Koshi masalasining taqribiy yechimlari bilan aniqlanadigan egri chiziqlar bo'yicha bajariladi.

Differensialning pastga tushish usulining bu varianti (3), (4) xossalariga ega bo'lgan $\{a_i^{i-1}(x)\}_1^m$ vektor – funksiyasiylarini yasashni talab etadi. Ular bizi bir chiziqli bog'liq bo'lmagan $\{a_i^0(x)\}_1^m$ boshlang'ich vekotrlar sistemasidan, masalan quyidagi formula bo'yicha yasash mumkin[16]:

$$a_i^j = a_i^{j-1} - \frac{(f'_j, a_i^{i-1})}{(f'_j, a_j^{j-1})} a_j^{j-1}, \quad j < i, \quad (1.7)$$

bunda i, j -butun sonlar. Xususiy holda $\{f'_i\}_i^m$ chiziqli bog'liqsiz vektorlar sistemasi bo'lsa, unda (7) da $\{f'_i = a_i^0\}_i^m$ deb qabul qilish mumkin. Shuning uchun $\{a_i^{i-1}(x)\}_1^m$ vektor – funksiyasini yasash uchun chiziqli bog'liqsiz vektorlar sistemasini ortogonallashtirishning, A ortogonallashtirishning ma'lum usularidan foydalanish mumkin [16].

$\{a_i^{i-1}(x)\}_1^m$ vektor – funksiyalaridan har xil usullar bilan yasash imkoniyatlaridan foydalanib ularni oson yasash usullarini izlash mumkin. Shunday hollarga bogʻliq, quyida (1) tenglamalar sistemasini turli turlantirishlarga asoslangan, proeksion - differensial usulning bazi bir yangi hisoblash algoritimlari keltiriladi.

1.1. Usulning soddalashtirilgan algoritimi. Avval (1) tenglamani vektor tenglama koʻrinishida yozamiz:

$$F(x) = 0, \quad (1.8)$$

bunda

$$F_i(x) = f_j(x),$$

$$F_k(x) = f_k(x) - \sum_{i=1}^{k-1} \left(\frac{f'_k, F'_i}{(F'_i, F'_i)} \right) F'_i = 0, \quad k = 2, 3, \dots, m$$

$\{f'_i = \text{grad} f'_j(x)\}_1^m$ vektorlar sistemasi chiziqli bogʻliq emas deb faraz qilinadi, (1) va (8) tenglamalar sistemalarining teng kuchli boʻladigani va

$$(F_i, F'_i) = \begin{cases} 0, & \text{agar } j=1, 2, \dots, i-1 \text{ bo'lsa,} \\ A_{ii}(x) > 0 & \text{agar } i=j \text{ bo'lsa} \end{cases} \quad (1.9)$$

shartlari bajariladiganini induksiya boʻyicha oson isbotlash mumkin boʻladi.

Shuning uchun bu holda

$$a_i^{i-1}(x) = F'_i(x), \quad i = 1, 2, \dots, m \quad (1.10)$$

deb qabul qilish mumkin va (8) sistemaga mos keladigan Koshi masalasiga rekur-rent ketma- ketlik quyidagicha yoziladi:

$$\frac{dx_i}{dt_i} = \frac{F_i(x)}{(F'_i, F'_i)}, \quad x_i^0 = x_i(t_i = t_i^{(0)}) = x_{i-1}(t_{i-1} = 0) = a_{0i-1}, \quad (1.11)$$

$$t_i^{(0)} = f_i(a_{0i-1}), \quad x^{(0)} = a_{00}, \quad i = 1, 2, \dots, m$$

Xususiyl holda agar (1) tenglama matritsasi $A_{m \times n}$ oʻlchamli $Ax = b$ koʻrinishidagi chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi boʻlsa, unda bunday sistema

$$f_i(x) = (A_i, x) - b_i, \quad i = 1, 2, \dots, m \quad (1.12)$$

ko`rinishida yozamiz. Bunda $A_i = (a_{i1}, a_{i2}, \dots, a_{in})$, $i = 1, 2, \dots, m$ vektorlari, b_i - ozod had b vektorining tuzuvchilari, x - izlanayotgan noma'lum vektor.

Bu holda (11) Koshi masalasini to'liq qadamli Eyler usuli bilan integrallagandan so'ng, (12) sistemani yechimi $a = a_{0m}$ quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$a_{0i} = a_{0i-1} - \frac{F_i(a_{0i-1})}{(F_i, F'_i)} F'_i, \quad i = 1, 2, \dots, m, \quad (1.13)$$

bunda $F_i(x)$ (1.8) formulasi bilan topiladi.

Shunday qilib berilgan (1) tenglamalar sistemasiga teng kuchli turlantirishlar orqali (1) sistemadan F'_i (9) shartlarini qanoatlantiradigan (8) sistemaga o'tadi. Bunday holda (10) tengliklariga bog'liq (3) va (4) xossalariga ega bo'lgan $\{a_i^{i-1}\}_1^m$ vektor funksiyalari (7) formulasi bo'yicha yasash talab etilmaydi.

1.2. Proeksion – differensial usulning yangi varianti. Yuqoridagi (5) va (6) nisbatlaridan (1) sistemaning $i-1$ - tenglamadagi moslik soni nolga teng bo'lganda (2) Koshi masalasi bu sistemaning i - tenglamasini moslik sonini nolga aylantirish uchun foydalanishga mumkin ekanligi kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, (1) sistemaning dastlabki $i-1$ tenglamlarini yechimini saqlab turib bu sistemani i - tenglamasini yechish mumkin bo'ladi. O'z navbatida (1) sistemaning dastlabki i tenglamasini yechimini aniqlash uchun (2) Koshi masalasining dastlabki i masalasini yechimlarini yaqinlashuvchi usullarni qo'llanib ketma – ket topiladi.

Proeksion – differensialning quyida keltirilgan o'zgartirilgan usuli quyidagiga asoslangan: (1) sistemaning avvalgi turlantirishlar yo'li bilan uning ixtiyoriy $x^{(0)}$ boshlang'ich yaqinlashuvini dastlabki $m-1$ tenglamalarini yechimi bo'ladigan teng kuchli sistemalar bilan almashtirishdan iborat bo'ladi. Bu holda qaralayotgan proeksion differensial usulining xossasi bo'yicha (3-punktning boshida aytib o'tilgan) oxirgi sistemani yechish uchun uning faqat eng oxirgi m - tenglamasini yechish yetarli bo'ladi. Shuning uchun bu usulning bunday

o'zgartirilgan turlaridan foydalanilganda (2) Koshi masalasini kerakli aniqlik bilan yechish kerak.

Proeksion – differensial usulning bunday o'zgartirilgan turining ma'nosi quyidagidan iborat.

Bazi bir aynimagan B matritsasi yordamida (1) sistemasidan unga teng kuchli bo'lgan

$$\varphi(x) \equiv Bf(x) = 0 \quad (1.14)$$

sistemasiga o'tiladi. Bunda $\varphi_i(x^{(0)}) = 0, i = 1, 2, \dots, m-1$ va $\varphi_m(x^{(0)}) \neq 0$ deb faraz qilinadi, $x^{(0)} \in \omega, x = a$ ko'rinishida ixtiyoriy boshlang'ich yaqinlashuvchi.

Jumladan: B matritsasi hisobida quyidagi matritsani olish mumkin

$$B = \begin{bmatrix} f_m^0 & 0 & 0 & \dots & 0 & -f_1^0 \\ 0 & f_m^0 & 0 & \dots & 0 & -f_2^0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & f_m^0 - f_{m-1}^0 \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \end{bmatrix} \quad (1.15)$$

Bunda $f_i^0 = f_i(x^{(0)}) (i = 1, 2, \dots, m)$ (1) sistemasining tenglamalarning boshlang'ich $x^{(0)}$ yaqinlashuvchisidagi mos emas sonlari. Shunda (1) va (14) sistemalarining teng kuchliligini saqlash uchun $f_i^0 \neq 0 i = 1, 2, \dots, m$ bo'lishi kerak. Shunda (15) matritsadan foydalanib (14) sistemani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\begin{aligned} \varphi_i(x) &\equiv f_i(x) f_i^0 = 0, & i = 1, 2, \dots, m-1, \\ \varphi_m(x) &\equiv f_m(x) = 0 \end{aligned} \quad (1.16)$$

Endi (15) matritsani quyidagicha yozish qulay bo'ladi:

$$B = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & \dots & 0 & -f_1^0 \\ 0 & 1 & 0 & \dots & 0 & -f_2^0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 1 & -f_{m-1}^0 \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \end{bmatrix} \quad (1.15')$$

Bu matritsadan foydalanib (14) sistemani quyidagicha yozish mumkin:

$$\begin{aligned}\varphi_i(x) &\equiv f_i(x) - \varphi_m(x) f_i^0 = 0, \quad i=1,2,\dots,m-1, \\ \varphi_m(x) &\equiv \frac{f_m(x)}{f_m(x^{(0)})} = 0 \quad (f_m(x^{(0)}) \neq 0)\end{aligned}\quad (1.16')$$

Hisoblashda foydalanish uchun (15') matritsasidan f_i^0 , $i=1,2,\dots,m-1$ larning ishorasini o'zgarish orqali uning teskari matritsasini oson aniqlash mumkin bo'ladi:

$$B^{-1} = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & \dots & 0 & f_1^0 \\ 0 & 1 & 0 & \dots & 0 & f_2^0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 1 & f_{m-1}^0 \\ 0 & 0 & 0 & \dots & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

Ixtiyoriy boshlang'ich yaqinlashuvchisida (16) va (16') sistemalarining dastlabki $m-1$ tenglamalarini qanoatlantirishidan bu tenglamalarning yechimini saqlab turib eng oxirgi m – tenglamaning kerakli aniqlik bilan yechish kerak. Bu masalani proeksion – differensial usulning bu o'zgartirilgan variantini qo'llanib yechish mumkin bo'ladi.

Shunday qilib (16) va (16') tenglamalar sistemasini yechish masalasi proeksion – differensial usuli bilan uning eng so'ngi m –tenglamasini yechish mumkin bo'ladi. Buning uchun o'z navbatida (2) Koshi masalalar ketma – ketligida faqat m –tenglamani kerakli aniqlik bilan integrallash kerak bo'ladi:

$$\frac{dx_m}{dt_m} = \frac{a_m^{m-1}}{(\varphi_m', a_m^{m-1})}, \quad x_m^0 = x_m(t_m = t_m^0) = x_{m-1}(t_{m-1} = 0) = a_{00}, \quad (1.17)$$

$$t_m^{(0)} = \varphi_m(x^{(0)}), \quad a_{00} = x^{(0)}$$

Bu holda $a_m^{m-1}(x)$ vektor – funksiyasi $\varphi_i(x)$ funksiallaridan (3), (4) turidagi shartlarni yani, quyidagi shartlarini qanoatlantiradiganday etib yasaladi:

$$(\varphi_m', a_m^{m-1}) = 0, \quad j \leq m-1,$$

$$(\varphi'_m, a_m^{m-1}) \neq 0, \quad \varphi'_j = \text{grad} \varphi_j(x), \quad j = 1, 2, \dots, m,$$

Agarda (12) chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi berilgan bo'lsa, unda (17) Koshi masalasini Eyler usuli bilan [1,2,3,8] integrallangandan so'ng bu sistemaning yechimini quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$a_{0m} = a_{00} - \frac{f_m(a_{00})}{(f'_m, a_m^{m-1})} a_m^{m-1}, \quad (1.18)$$

Bunda $a_{00} = x^{(0)} = \omega$, $f_i(x^{(0)}) \neq 0$ ($i = 1, 2, \dots, m$) shartlarini qanoatlantiradigan (12) sistemasining yechimiga ixtiyoriy boshlang'ich yaqinlashuvchi.

Agarda xussiy holda $x^{(0)}$ - nollik vektor bo'lsa, unda $f_i^0 = f_i(x^{(0)}) = -b$ ($b_i \neq 0, i = \overline{1, m}$) va (16) sistema quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\begin{aligned} \varphi_i(x) &\equiv f_m(x)b_i - f_i(x)b_m = 0, \quad i = 1, 2, \dots, m-1, \\ \varphi_m(x) &\equiv f_m(x) = (A_m, x) - b_m = 0 \end{aligned}$$

Shunda (18) formula bo'yicha quyidagi natijaga kelamiz:

$$a_{0m} = \frac{b_m}{(A_m, a_m^{m-1})} a_m^{m-1} \quad (1.18')$$

Shunday qilib (16') chi sistemasi berilgan holda $t_m^{(0)} = \varphi_m(x^{(0)}) = 1$ bo'ladi va (18') formulasi yana ham soddalashadi:

$$a_{0m} = -\frac{1}{(A_m, a_m^{m-1})} a_m^{m-1} \quad (1.18'')$$

Tekshirib ko'rish yo'li bilan (13), (18), (18'), (18'') formulalari (12) chiziqli algebraik tenglamalar sistemasining aniq yechimini aniqlash mumkin bo'ladi. Agar bu formulalar bo'yicha hisoblashlar to'g'ri bajarilsa unda iteratsiyalar ko'rinishida hisoblash mumkin bo'ladi.

Proeksion – differensial usulning bu yangi varianti xossalriga mos (boshlang'ich tayanch yechim (1) tenglamalari sistemasining dastlabki $m-1$ tenglamasining yechimi bo'ladi va bu sistemaning yechimini aniqlash uchun (2) Koshi masalasini faqatgina m – masalasini kerakli aniqlik bilan integrallash yetarli) (18), (18'')

formulalari bo'yicha bajariladigan hisoblashlarning hajmi usulning [7,11] ishlarida keltirilgan hisoblashlar sxemasi bilan solishtirganda ancha qisqaradi va yechimni yuqori aniqlik bilan topish mumkin bo'ladi. Hisoblash jarayonini boshlash uchun oldindan (16), (16') tenglamalarning sistemasini yasash qiyin emas, ammo ular hisoblashlarning barchasida foydalanilmaydi.

1.3. Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi uchun proeksion – differensial usulning yaqinlashuvchiligini tekshirish.

Avval aniqlik uchun A matritsasi simmetrik va musbat aniqlangan

$$f(x) = Ax - b = 0 \quad (1.19)$$

chiziqli algebraik tenglamalar sistemasiga qaraymiz: $A = (a_{ij}, i, j = \overline{1, n}) n \times n$ o'lchamli kvadrat matritsa. Bu sistemani unga teng kuchli bo'lgan quyidagi skalyar tenglamalarning sistemasi bilan almashtiramiz:

$$f_i(x) = (Ax - b, \varphi_i) = 0, \quad i = 1, 2, \dots, n \quad (1.20)$$

Bunda $\{\varphi_i\}_i^n - E^n$ fazosida chiziqli bog'liq bo'lmagan vektorlar sistemasi (bazis). Bu holdan funksionalning gradient uchun quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$f'_i = \text{grad} f_i(x) = A\varphi_i, \quad i = 1, 2, \dots, n$$

$\{\varphi_i\}_1^n, \{a_i^{i-1}\}_1^n$ vektorlar sistemalarini (19) sistemasining $\{f(a_{0i}) = Aa_{0i} - b\}_i^n$ mos emas vektorlaridan ketma – ket yasaladi va bu holda $\{a_i^{i-1}\}_1^n$ vektorlarining x ga bog'liq bo'lmaganligi hisobga olinib, (2) ni integrallab (20) sistemaning yechimini quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$$\begin{aligned} a_i^{i-1} &= \varphi_i = f(a_{i0}) - \beta_i \varphi_{i-1}, \\ \beta_i &= \begin{cases} 0, & \text{agar } i=1 \text{ bo'lsa,} \\ \frac{(f(a_{0i}), A\varphi_{i-1})}{(A\varphi_{i-1}, \varphi_{i-1})}, & \text{agar } i \geq 2 \text{ bo'lsa,} \end{cases} \\ a_{0i} &= a_{0i-1} \gamma_i \varphi_i, \quad \gamma_i = \frac{(f(a_{0i-1}), \varphi_i)}{(A\varphi_i, \varphi_i)}, \quad i = 1, 2, \dots, n \end{aligned} \quad (1.21)$$

Bu formulalarda β_i kayfitseni quyidagi shartlardan saylab olinadi:

$$(a_i^{i-1}, f'_{i-1}) = (\varphi_i, f'_{i-1}) = (\varphi_i, A\varphi_{i-1}) = 0, \quad i = 2, 3, \dots, n$$

Shunda quyidagi teorema to'g'ri bo'ladi.

TEOREMA: Agar $x^{(0)} = a_{00} \in E^n$ va $\{f(a_{0i})\}$ ($i = \overline{0, n-1}$) vektorlar sistemasi chiziqli bog'liq bo'lmasa, unda (21) iteratsion jarayon korrekt aniqlangan va n dan ortiq bo'lmagan qadamlarda yaqinlashuvchi bo'ladi.

Bu teoremaning isboti induksiya bo'yicha bajariladi. Mayli a_{0i} yaqinlashuvi (21) formulasi bo'yicha topilgan bo'lsin, yani $f_j(a_{0i}) = 0, \quad j = 1, 2, \dots, i$ bo'lib, barcha $f(a_{0j}) \neq 0, \quad j \leq i$ va $i > 2$ uchun quyidagi tenglik bajarilsin ($i = 1, 2$ uchun ularning bajariladigani tenkshirib ko'riladi):

$$(A\varphi_i, \varphi_j) = 0, \quad j = 1, 2, \dots, i-1, \quad (1.22)$$

$$\gamma_j > 0, \quad j = 1, 2, \dots, i, \quad (1.23)$$

$$\beta_j < 0, \quad j = 1, 2, \dots, i, \quad (1.24)$$

$$(f(a_{0i}), f(a_{0j})) = 0, \quad j = 1, 2, \dots, i-1, \quad (1.25)$$

Agar $f(a_{0j}) = 0, \quad j < i$ bo'lsa, unda $a_{0j} = a - (20)$ sistemaning yechimi bo'ladi va jarayon tamomlanadi.

Endi (21) – (25) farazlarning (21) – iteratsion jarayonning $(i+1)$ – qadamida bajarilishini isbotlaymiz. Avval (21) formuladan quyidagiga ega bo'lamiz:

$$f(a_{0j}) = f(a_{0j-1}) - \frac{f_j(a_{0j-1})}{(A\varphi_j, \varphi_j)} A\varphi_j = f(a_{0j-1}) - \gamma_j A\varphi_j, \quad (1.26)$$

$$f(a_{0j}) = \varphi_{j+1} - \beta_{j+1} \varphi_j, \quad j = 1, 2, \dots, i-1 \quad (1.27)$$

Bu formuladan foydalanib quyidagi natijga kelamiz:

$$A\varphi_i = \frac{1}{\gamma_i} [-\varphi_{j+1} - \beta_{j+1} \varphi_j + f(a_{0j-1})] = b_j \varphi_{j+1} + c_j \varphi_j + d_j \varphi_{j-1},$$

$$b_j = \frac{1}{\gamma_j}, \quad c_j = \frac{1 - \beta_{j+1}}{\gamma_j}, \quad d_j = \frac{\beta_j}{\gamma_i}, \quad j = 1, 2, \dots, i-1$$

(bu yerda $\varphi_0 = 0$ deb faraz qilinadi).

Yuqoridagi farazlarga ko'ra quyidagi nisbatlarni yozish mumkin bo'ladi:

$$\begin{aligned} (A\varphi_{j+1}, \varphi_j) &= (Af(a_{0i}) + \beta_{j+1}(A\varphi_j, \varphi_j) = (Af(a_{0i}), \varphi_j) + \beta_{j+1}(A\varphi_j, \varphi_j) = \\ (f(a_{0i}), A\varphi_j) &= b_j(f(a_{0i}), \varphi_{j+1}) + c_j(f(a_{0i}), \varphi_j) + d_j(f(a_{0i}), \varphi_{j-1}) = \\ b_j f_{i+i}(a_{0i}) + c_j f(a_{0i}) + d_j f_{i-1}(a_{0i}) &= 0, \quad j = 1, 2, \dots, i-1 \end{aligned}$$

Bu bo'yicha $(A\varphi_{j+1}, \varphi_j) = 0$ bo'lgani uchun barcha $j < i$ lar uchun $(A\varphi_{j+1}, \varphi_{j+1}) = 0$ bo'ladi. Bu (21) iteratsion jarayonning $(i+1)$ - qadamida (22) hisoblashlarning bajarilishi ko'rsatadi. Endi

$$\gamma_{j+1} = \frac{(f(a_{01}), \varphi_{i+1})}{(A\varphi_{j+1}, \varphi_{j+1})} = \frac{(f(a_{01}), f(a_{01}) - \beta_{i+1}\varphi_i)}{(A\varphi_{j+1}, \varphi_{j+1})} = \frac{(f(a_{01}), f(a_{01}))}{(A\varphi_{j+1}, \varphi_{i+1})}$$

miqdorining musbat bo'ladiganini ko'rsatamiz. Haqiqatdan ham aksincha bo'lganda $\gamma_{j+1} = 0$ bo'ladi va $f(a_{0i}) = 0$ bo'ladigani kelib chiqadi. Bu $\{f(a_{0i})\}_i^n$ vektorlar sistemasining chiziqli bog'liqsiz deb farazimizga qarshi keladi.

Bundan so'ng $j = 1, 2, \dots, i$ bo'lganda $(f(a_{0i+1}), f(a_{0j})) = 0$ bo'ladiganini isbotlaymiz. Buning uchun (26) formuladan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} (f(a_{0i+1}), f(a_{0j})) &= (f(a_{0i+1}), \varphi_{j+1} - \beta_{j+1}\varphi_j) = \\ (f(a_{0i+1}), \varphi_{j+1}) - \beta_{j+1}(f(a_{0i+1}), \varphi_j) &= 0 \end{aligned}$$

ixtiyoriy $0 \leq j \leq i$ uchun. Shunda (27) formula bo'yicha

$$A\varphi_j = \frac{1}{\gamma_i} [f(a_{0j}) - f(a_{0j-1})], \quad j = 1, 2, 3, \dots, i-1$$

bo'ladi. Shuning uchun (26) nisbatlari asosan $j = \overline{1, i-1}$ bo'lganda

$$(f(a_{0i}), A\varphi_j) = -\frac{1}{\gamma_j} [(f(a_{0i}), f(a_{0j})) - (f(a_{0i}), f(a_{0j-1}))] = 0, \quad (j = \overline{1, i-1}),$$

$$(f(a_{0i}), A\varphi_j) = -\frac{1}{\gamma_j} (f(a_{0i}), f(a_{0i})) = -\frac{(A\varphi_i, \varphi)}{(f(a_{0i-1}), f(a_{0i-1}))} (f(a_{0i}), f(a_{0i})),$$

bo`ladi va (28) dan foydalanib quyidagiga ega bo`lamiz:

$$\beta_i = \frac{(f(a_{0i}), A\varphi_i)}{(A\varphi_i, \varphi_i)} = - \frac{(A\varphi_i, \varphi_i)(f(a_{0i}), f(a_{0i}))}{(f(a_{0i-1}), f(a_{0i-1}))(A\varphi_i, \varphi_i)} = - \frac{\|f(a_{0i})\|^2}{\|f(a_{0i-1})\|^2} < 0$$

Shunday qilib (21) iteratsion jarayon $(i+1)$ – qadamida (22) – (25) ifodalarining to`g`ri bo`ladigani isbotlandi.

Yuqoridagi isbotlangan teoremlardan quyidagi xulosaga kelamiz: agarda (21) formula bo`yicha hisoblashlar bajarilganda  $f(a_{0j})=0$  vektori kelib chiqsa, unda (21) usul korrekt aniqlangan bo`ladi. Sababi β_i va γ_i larning maxrajlarini noldan farqli va $(f(a_{0j}), f(a_{0n}))=0, \{f(a_{0j})\}, j=1,2,...,n-1$ vektorlari o`zaro ortogonal bo`ladi, demak ular chiziqli bog`liqsiz. Shuning uchun  $f(a_{0n})=0$  bo`ladi. Agar j -qadamida $f(a_{0j})=0$ bo`lsa, unda hisoblashlar n qadamdan burun tugatiladi.

Taqribiy a_{0n} yechimining (19) va (20) sistemasining yechimi bilan mos kelishini quyidagicha ko`rsatish mumkin: (21) formulalarini ketma – ket qo`llanib iteratsion jarayonni n -qadamida quyidagi formulaga ega bo`lamiz:

$$a_{0n} = a_{00} - \sum_{j=1}^n \gamma_j \varphi_j = a_{00} - \sum_{j=1}^n \frac{(f(a_{0j-1}), \varphi_j)}{(A\varphi_j, \varphi_j)} \varphi_j \quad (1.29)$$

Shuningdek $\{\varphi_i\}_1^n$ vektorlari chiziqli bog`liqsiz bo`lgani uchun $a-a_{00}$ vektori ularning chiziqli kombinatsiasi ko`rinishida ko`rsatish mumkin :

$$a = a_{00} + \sum_{k=1}^n c_k \varphi_k, \quad a = A^{-1}b, \quad (1.30)$$

$$(f(a_{0j-1}), \varphi_j) = (f(a_{0j-2}), \varphi_j) = (f(a_{0j-3}), \varphi_j) = \dots = (f(a_{00}), \varphi_j)$$

ekanligini hisobga olib c_k koeffitsientlari uchun quyidagi formulani keltirib chiqaramiz:

$$c_k = \frac{(f(a_{0k-1}), \varphi_k)}{(A\varphi_k, \varphi_k)}, \quad k=1,2,...,n$$

Endi (29) va (30) larni soddalashtirib, $a_{0n} = a = A^{-1}b$ bo`ladi degan xulosaga kelamiz. Mayli endi (19) sistemadan  $A$  – ixtiyoriy aynimagan matritsa bo`lsin. kelib chiqqan A' matritsasiga ko`paytirib, unga teng kuchli bo`lgan $A'Ax = A'b$ sistemasiga ega bolamiz. (19) sistemani bunday turlantirib Gaussning birinichi transformatsiya deb ataladigan [16] natijasida kelib chiqqan CHATS ning matritsasi simmetrik va musbat bo`ladi. Bu oxirgi sistemaning ko`rinishidan (21) formulalar quyidagi ko`rinishda yoziladi.

$$a_i^{i-1} = \varphi_i = A' f(a_{0i-1}) - \beta_i \varphi_{i-1},$$

$$\beta_i = \begin{cases} 0, & \text{agar } i=1 \text{ bo'lsa,} \\ \frac{(A' f(a_{0i-1}), A' A \varphi_{i-1})}{(A \varphi_{i-1}, A \varphi_{i-1})}, & \text{agar } i \geq 2 \text{ bo'lsa} \end{cases} \quad (1.21')$$

$$a_{0i} = a_{0i-1} \gamma_i \varphi_i, \quad \gamma_i = \frac{(f(a_{0i-1}), A \varphi_i)}{(A \varphi_i, A \varphi_i)}, \quad i = 1, 2, \dots, n,$$

bunda $f(a_{00})$ -dastlabki (19) sistemasining moslik bo`lmagan vektori.

Xuddi shunday hisoblash algoritimini, to`liq aniqlanmagan CHATS lar uchun Gaussning ikkinchi transformatsiyasini qo`llanib kelitrib chiqarish mumkin bo`ladi.

2 – §. Proeksion – differensial usulni ixtiyoriy matritsaning xos qiymatlarini va xos vektorlarini topish uchun qo`llanilishi.

Matritsaning xos qiymatining yagona masalasini yechish uchun yani matritsaning modul bo`yicha eng katta bitta yoki bir necha xos qiymatlarini va ularga mos keladigan xos vektorlarini aniqlash uchun ko`p sondagi usullar ishlab chiqilgan [4,14,16]. Bu usullarning asosida matritsaning u yoki bu xossalardan foydalanish g`oyalari yotadi. Masalan matritsaning xos qiymatlarini modul bo`yicha bo`lishtirish va ularning karraliligi, xos vektorlarining ortogonal bo`lishi va boshqalar. Matritsaning xos qiymatlarining yagona masalasini yechish usullari iteratsion usullar bo`ladi.[4,14,16].

Ixtiyoriy simmetrik bo'lmagan matritsa uchun uning xos qiymatlarini hisoblash masalasi simmetrik matritsa holiga solishtriganda anchagina murakkabroq bo'ladi va uni hisoblash usullari ham murakkab bo'ladi.

Simmetrik bo'lmagan matritsaning xos qiymatlarini unga yomon shartlashgan bo'lishi mumkin [4,8,13,14]. Shuning uchun simmetrik emas matritsalarining xos qiymatlarini aniq hisoblashga imkoniyat beradigan usullarni ishlab chiqish juda murakkab masala bo'ladi. Agar ixtiyoriy A matritsasi berilgan bo'lsa unda eng qulay holda $A+J$ turidagi matritsaning xos qiymatlarini berilgan aniqlik bilan hisoblaydigan usullar bor deb ishonishimiz mumkin. Bunda J - elementlari qandaydiy bir qiymatlari kichik bo'lgan $n \times n$ - o'lchamli matritsa. Agarda bu holda hisoblangan xos qiymatlar ularning aniq qiymatidan ko'p miqdorda farq qilsa, unda bu xos qiymatlarning yomon shartlashganligini ifodalaydi.

Agarda λ_i - A matritsasining xos qiymatlari bo'lsa, unda unga mos xos vektor

